

## “OQ KEMA” QISSASI QAHRAMONLARINING BADIY TALQINI

*Abdurahmonova Farangiz Husan qizi*

*Termiz davlat universiteti o’zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk qirg’iz adibining dunyo tan olgan o’lmas asari “Oq kema” asari qahramonlari badiiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu asar mavzu ko’laming bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Oq kema”, ramz, qahramon, ramziy obrazlar, bola obrazi.

Nafaqat qadim qirg’iz xalqining, balki butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixor ko’zgusi bo’lgan ulug’ yozuvchi Chingiz Aytmatov o’zidan abadiy kitobxonlar ko’nglini bir o’qishdayoq zabit etadigan durdona asarlar qoldirdi. Bunday asarlar sirasiga kiruvchi mo’jazgina “Oq kema” qissasi ham kitob ixlosmandlarining sevimli kitobiga aylangan hamda ulug’ adib ushbu asari bilan qissachilik an'analarini yana bir pog’ona yuksaltirdi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Ushbu asarning asl mavzusi faqatgina bir-biriga o’xshamagan taqdir egalarining ziddiyatlarga to’la hayoti emas, balki bugungi kunda ham dolzarb mavzulardan biriga aylanib qolgan ekologik muammolar, oilaviy notinchlik, ko’plab baxtsiz oilalarning farzandsizlik dardi, shuningdek, inson va uning qadri, inson yaratilganidan buyon bir-birini qat’iyan inkor etadigan tushunchalar - ezgulik hamda yovuzlikning asl ko’rinishi kabi dolzarb muammolar hamdir. Ulug’ adib ushbu mavzularni personajlar taqdiriga shunday qorishtirib yuborganki, asarning har bir obrazi o’ziga xos alohida mavzuning bir logotipi bo’ladi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Asar nomlanishiga keladigan bo’lsak, oq kema - bu asar bosh qahramoni bolakayning xayoliy in’ikosi, barcha orzu-umidlarini, hayotdan kutgan tuhfalarini o’zida mujassam etgan badiiy detal. Bolakayga yozuvchi ism berishni ma’qul ko’rmagan, balki, hayoti shunday dard-alamlarga, qayg’u tashvishlarga to’la bo’lsa-da, mitti yurakchasi mehr-u muhabbatga, ezgulikka limmolim bo’lgan murg’ak qalb egalarining umumlashma obrazi bo’lishini istagandir. Bolakayni otasi hamda onasi tashlab ketgan, shuning uchun uni bobosi hamda o’gay buvisi o’z qaramog’iga olgan. Ko’ngli yarim bu bola xayolan doimo oq kemani ko’radi, u shunchalar bu sarobga ishonadiki, shuning uchun bo’lsa kerak, hatto biron marta oq kemaning sarobligiga, uning aslida bu dunyoda yo’qligiga hech shubha qilmaydi. Uning hayotdan birdan bir orzusi – baliqqa aylanish va oq kemaga qadar suzib borish, negaki oq kemada bolaning dadasi bor, dadasi esa u yerda matros bo’lib ishlaydi.

Xullas, ushbu xayollarga bola to’la-to’kis ishonadi va uning butun hayoti ushbu o’y-xayollardan iborat. Shuning uchun ham asarga “Oq kema” deb nom qo’yilgan bo’lsa, ajab emas. Ushbu qissani to’liq tushunish uchun ramz(simvol) degan adabiy atamani bilishimiz kerak. Ramz – inson his-tuyg’ulari, orzu-umidlari, uning botinidagi

mavhum tushunchalarni, ya’nikim so’z bilan ta’riflab bo’lmaydigan abstrakt narsalarni biron–bir narsa-buyumga, detalga ko’chirishdir. Aslida, ramz atamasi ,avvalo, grekcha “symbolon” s9zidan olingan bo‘lib, qadimgi yunonlarda maxfiy tashkilot a’zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo’llanilgan shartli belgisini anglatgan. Keyinchalik adabiy atama sifatida asarlarda yozuvchilar ochiq-oydin tavsiflay olmagan hodisalarni, mavhum tushunchalarni yoki aytib bo‘lmas haqiqatlarni anglashni osonlashtirish uchun qo’llanadigan bo‘ldi.

Misol uchun, oq kema ham asarda bir simvol, u mehr-muhabbat, to’kislik, oqibat hamda **diydar** ramzi. Bolaning fikricha, uning otasi oq kemada, u oq kemaga borsa, otasi bilan ko’rishadi, diydoriga ilhaq bo’lgan insoniga yetishadi. Shuning uchun ham oq kemani o’zorzulariga yetishtiruvchi mo’jiza deb his qiladi. Ammo...

Ammo hayotda doim biz xohlagan narsalar bo’lavermaydi. Biz orzu qilgan, umid ila kutgan narsamiz sarob bo‘lib chiqishi hech gap emas, chunki bu hayot. Hayot esa hech qanday qonuniyatga bo’ysunmaydi.

Bundan tashqari, Shoxdor ona bug‘u hech qachon dunyodan yo‘qotib bo’lmaydigan boqiy ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat ramzi. Negaki asarda Shoxdor ona bug‘u o‘limga hukm etilgan odam bolalarini qutqarib qoladigan va ularga onalik qiladigan darajada mehrli, oqibatlidir.

Baliq esa bola uchun erk va qudrat ramzi, sababi bola doim baliqqa aykanishni orzu qiladi, baliq bo‘lsa suvda tez suza oladi, yana ko‘p vaqt ko‘zlarini yummaydi ham. Bular bolaning ongida baliq kuchli ekan degan xulosani beradi.

Xuddi shuningdek, bolakay ishongan narsalarning bari shunchaki ro’yo, negaki aslini olganda, uning otasi ularni, ya’ni onasi va o’zini tashlab ketgan. U intiqib kutadigan, sog’inib yashaydigan insoni – onasi esa o’z baxtini topish uchun shaharga ketib qolgan. Bolaning hayoti o’z tengdoshlari, umrining poshsholik davri - bolaligini mehribon ota-onasi bag’rida podsholardek o’tkazayotgan g’am-tashvishsiz, hayot mazmunini o’zi o’ynaydigan o’yinlardangina iborat deb biladigan bolalarnikidan tubdan farq qiladi. U shunchalik yolg’izki, hatto tengqurlari, u bilan suhbatlashadigan do’stlari yo’qligidan toshlar, o’simliklar bilan o’rtoqlashadi. Hatto uning sevimli suhbatdoshlari oddiy buyumlar: durbin, maktab ryukzagi bo’ladi, u o’z taqdirini, uni qiyanagan alamlarni, hayotining achchiq-chuchukliklarini ularga gapirib biroz bo’lsa-da taskin topadi. Shunday bo’lsa-da bobosi Mo’mindan chol unga g’amxo’r, chunonchi, uning tarbiyasida bosh rolni o’ynaydi. U bolaga juda yaxshi tarbiya beradi, ezgulik, insoniylik, ajdodlarga hurmat- e’tibor, bobolar udumini saqlash inson uchun eng muhim fazilatlar ekanligini uqtiradi. Bundan tashqari, bolani juda olis bo’lsa-da, tog’lar oshib otda mактабга оlib boradi. Bular Mo’mindan cholning bola taqdiriga befarq emasligini ko’rsatadi. Bir kuni Askar ismli haydovchi bilan bola suhbatlashib qoladi. Mo’mindan chol bolakayga yetti ajdodining ismini o’rgatgan hamda buni har bir chin inson bilishi kerakligini uqtirgan edi. Bola ham Askardan yetti pushtini bilish bilmasligini

so'raydi. Aniqki, Askar buni bilmasdi, chunki zamonaviy insonlar, bashariyatning yangi avlodi uchun faqat o'zlari muhim. Ular ota-bobolarini mensimaydi, hatto eslamaydi ham, milliy urf-odatlarni esa maynabozchilik deb biladi. Askar ham xuddi shunday bu narsalarni bo'limg'ur gaplar deb ataydi, bolaga esa bobosi madaniyatsiz, nodon inson ekanligini aytadi. Aslida esa Askar, O'rozqul va ular kabi zamonaviy manqurtlar asl johillardir.

Bola kichkina bo'lishiga qaramasdan, mulohazaga moyil aqli, nafis histuyg'ularga ega murg'ak qalbi bor edi, tabiiyki, bu gaplarga ishonmaydi, hatto parvo qilmaydi.

Asarda boladan tashqari Mo'min chol, O'rozqul, Bo'key, Seydahmad va Guljamol kabi yordamchi obrazlar ham ishtirok etgan. Ularning har biri orqali ulug' adib hayotning bir haqiqatini olib chiqqan.

Qahramon – ( ruschadan калька - “героическое “ ) asar personajlari tizimida yetakchi mavqe tutib, g'oyaviy-badiiy konsepsiyanı shakllantirish va ifodalashda muhim rol óynovchi shaxs obrazi.

Avvalambor, bolaning eng yaqin insoni Mo'min chol. Uni yozuvchi shunday ta'riflaydiki, beixtiyor uni ezgulikning ideal ko'rinishi deb ataymiz. Mo'min chol - qissada sof qalbli, butun hayotini yaxshilik qilish bilan o'tkazgan, hayotida shuncha g'am – g'ussalar bo'lasa-da ularga sabot bilan bardosh beradigan, ota-bobolarini unutmagan, ularning udumlarini e'zozlaydigan, eng muhimi, insoniylik tamoyillariga to'la amal qiladigan chin inson sifatida gavdalantirilgan. U Shoxdor ona bug'u avlodlaridan edi, shuning uchun bu afsonani nevarasiga ham aytib beradi. Mo'min chol shunchalar kamtar bo'ladiki, hatto to'y-u azalarda, yig'inlarda yoshi anchaga borib qolgan, endi hurmat talab qiladigan yoshdaligigiga qaramasdan samovarga choy qaynatadi, katta mehmonlarni kutib oladi va h.k. Adib ta'riflaganidek, Mo'min chol – “o'zi bilmagan holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam”. Uning ikki qizi bor: lekin ularning ham ikkisi taqdirdan norozi, baxtsiz edi. Biri bolaning onasi, ikkinchisi Bo'key. Bolaning onasi turmushi buzilib, shaharga ketib qolgan, shundan beri tog'ga - ovulga qaytmagan. Bo'key esa befarzand edi, shuning uchun eri O'rozqul bilan oralari sovuq. Eri doim ichib kelib alamini Bo'keydan olardi. U shuning uchun ham doim g'amgin yurar, hayoti g'am-qayg'uga to'la ekanligi ko'zlaridan bilinib turar edi. Asarda salbiy qahramon bor bo'lsa, u ham O'rozquldir. U diydasi qattiq, rahbar bo'lib qing'ir ishlarga aralashgan, xotiniga azob beradigan, manman, kibrli inson deya tavsiflangan. Uning qing'irliliklari shundan iborat ediki, u tog'dagi o'rmon xo'jaliklari boshlig'i bo'lib, o'z mansabini suiiste'mol qilardi. Tog'dagi qarag'ay, archalarni davlat ruxsatisiz, o'z nafsin o'ylab sotardi. Chunonchi, uning dangasaligini (buni Mo'min chol doim qishda mollarga pichanni o'zi uchun ham, O'rozqul uchun ham ikki hissa o'rishidan bilib olsak bo'ladi) ham uning illatlari safiga qo'shsak, inson qiyofasidagi maxluq desak ham bo'ladi. Seydahmad epizodik obraz bo'lsa-da, u ham

asarda qanchadir miqdorda badiiy yuk tashigan. U o'zi yaxshi, yuvosh, xushxulq yigit bo'lsa-da, yalqov, uyquchi edi. Aslida, shaharda ham ish ko'p, lekin aynan shu xarakteri tufayli ham o'rmonchilikka kelib qolgandi. Uning ayoli Guljamol hamda qizchasi bor edi. Guljamol oddiy qishloq ayoli, hayotini qiziga, tog'dagi ishiga, eriga bag'ishlagan yaxshi xotin edi.

Asardagi obrazlar silsilasi o'z xarakteri, ruhiyati bilan bir-birida ajralib turuvchi, o'z shaxsiy hayoti, o'z dunyoqarashiga ega ushbu insonlardan iborat. Asarning hajmi u qadar katta emas, bor-yo'g'i 150-160 sahifa, biroq har doim ham mohiyat shaklga bog'liq emas. Ushbu qissa ma'no ko'lami, mavzu-g'oyasi bilan anchayin katta va mashhur asarlarni-da dog'da qoldiradi. Asar yakuni boshqa kitoblardan umidbaxsh sadolar bilan tugamasligi sababli keskin farq qiladi. Shuning uchun ham ushbu asarni shafqatsiz realizmning yorqin ko'rinishi desak bo'ladi. Mo'min chol asar oxirida o'z qo'llari bilan baxtsiz va befarzand qizining iltijolari va kuyovining zug'umi ostida bug'u o'ldirishga majbur bo'ladi. Bu hodisa bolaning ham, Mo'min cholning ham ruhiyatiga qattiq zarba bo'ldi. Umr bo'yi og'ziga ichkilik olmagan bobo bunga chiday olmaydi va ichib mast bo'lib qoladi. Bola hamisha xolasiga Shoxdor ona bug'u shoxlarida qayindan yasalgan beshik olib keladi, ya'ni ularni farzand bilan siylaydi deb umid qilar edi. Afsuski, ushbu umidlari ham ro'yoga aylandi, endi o'sha bug'uning o'zi yo'q, u qozonlarda go'sht bo'lib qaynamoqda. Bobosi unga Shoxdor ona bug'u bizning ajdodimiz, bug'ularni o'ldirish gunoh deb uqtirgandi, endi esa o'zi bu qonunni buzyapti. Bola mazkur voqeani hazm qilolmaydi, bobosiga men baliq bo'lib oq kemaga ketaman deydi-yu, o'zini daryoga tashlaydi. Yozuvchi esa asar so'ngini hazin kuy bilan, munqli sadolar bilan tugallaydi: "Sen o'z ertagingda baliq kabi suzarding, bo'talog'im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko'lgacha suzib borolmaysan, oq kemani ham ko'ra olmaysan..."

Bo'talog'im sen bilan vidolashar ekanman, sening so'zingni yana bir bor takrorlayman:"Salom, oq kema, bu men!"

Asar so'ngida adib bolani haqiqat bilan yuzlashtiradi, ya'ni orzular g'alvirini ko'taradi, suvda esa faqat armonlar qoldig'igina qoladi...

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarda faqat o'sha davr emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lган mavzular o'ziga xos mahorat bilan, iste'dod bilan qalamga olingan. Ushbu asar butun bashariyat uchun azal-azaldan tamal toshi bo'lib kelayotgan qadriyatlar, ajdodlar udumi, shuningdek, "nur va soya" kabi bir-biriga zid bo'lган yaxshilik va yomonlik tushunchalarining asl mohiyatini ochib beradi. Binobarin, asarda qirg'iz xalqining folklori, mif va afsonalariga murojaat etilib, undan syujet ipida mohirlilik bilan foydalanilgan, ya'ni ushbu afsona tufayli bolaning keyingi hayoti o'zgarib ketishiga sabab qilib ko'rsatilgan. Chingiz Aytmatov "Oq kema" qissasi tufayli asrlar osha har bir avlodni, insoniyatning yangi farzandlarini ezgulikka chorlab, yovuzlikdan, johillikdan ogoh etadi. Ushbu da'vat har bir kitob shinavandalarini befarq

qoldirmagay, bundan keyin ham kitobxonlar qalbining tub-tubida joy olajak! Zero, ulug' adibning qalamidan to'kilgan ushbu asar adabiyot xazinasining go'zal la'l-u javohiridir!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Oq kema. Chingiz Aytmatov. "Ilm-ziyo- zakovat ". Toshkent – 2022.
2. Adabiyotshunoslik lug'ati. D. Quronov va boshqalar. "Akademnashr". Toshkent-2013.
3. 7-sinf adabiyot. Q. Yoldoshev. B. Qosimov va boshqalar. " Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent- 2017.